

BOLALARINI HAR TOMONLAMA BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

Haqberdiyeva Dildora Xamdamovna

Qashqadaryo viloyati

Koson tuman 32-DMTT tayyorlov guruh tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash jarayonida badiiy adabiyotning o'rni tahlil qilinadi. Badiiy adabiyot nafaqat bolalarning nutqini rivojlantirishga, balki ularning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga, tasavvur va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham beqiyos ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lif, ertaklar, nutq rivoji, axloqiy tarbiya, ijodiy tafakkur, kitobxonlik, pedagogika, estetik did.

Bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, bunda badiiy adabiyot muhim o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyot bolalarga nafaqat bilim, balki axloqiy va ma'naviy tarbiya berishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot orqali bolalar atrof-muhitni idrok etish, o'z fikrlarini ravon ifodalash, mustaqil tafakkur qilish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, maktabgacha ta'lif muassasalarida badiiy adabiyotning bolalar ruhiyatiga, tafakkuriga va axloqiy fazilatlarini shakllantirishga ta'siri juda katta. Badiiy adabiyot insonning tafakkur va ma'naviy olamini boyituvchi eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Ertaklar, hikoyalar, she'rlar va dostonlar orqali bolalar hayotiy tajribani o'zlashtiradi, yaxshilik va yomonlikni farqlashni o'rganadi. Ayniqsa, xalq ertaklari bolalarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim vosita bo'lib, ularda haqiqat,adolat, mehnatsevarlik, do'stlik va insoniylik kabi fazilatlar singdirilgan bo'ladi. Shu sababli, maktabgacha

yoshdagи bolalar bilan ishlovchi pedagoglar badiiy adabiyotdan keng foydalanishlari zarur.

Badiiy adabiyotning bolalar tarbiyasidagi o‘rnı faqatgina axloqiy qadriyatlarni singdirish bilan cheklanmaydi, balki u bolalarda badiiy tasavvur, ijodiy fikrlash va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Masalan, ertak va hikoyalardagi tasviriyl ifodalar orqali bolalar voqealarni o‘z tasavvurlarida jonlantirishga o‘rganadilar. Bu esa ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, kelajakda mustaqil fikrlaydigan shaxs bo‘lishiga asos yaratadi. Badiiy adabiyot bolaning nutqini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari – maqollar, topishmoqlar, latifalar va dostonlar bola nutqining boyishi va to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi. She’riy asarlar, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan she’rlar bolaning ritm, tovush va talaffuzga bo‘lgan sezgirligini oshiradi. Bolalar uchun yozilgan badiiy asarlar ularning tasavvur doirasini kengaytiradi, ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va hayotni anglashida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, teatr sahnalari, dialog va monolog mashqlar orqali bolalar notiqlik san’atini egallashlari mumkin. Badiiy adabiyot orqali tarbiya jarayonida bolalarning emotsiyal holatini barqarorlashtirishga ham erishish mumkin. Masalan, qo‘rqinchli tushlar yoki ichki qo‘rquvlar bilan bog‘liq muammolarni ertaklar va hikoyalalar orqali yengish mumkin. Bolalar ertak qahramonlari orqali o‘zlariga yaqin hayotiy holatlar bilan tanishadi va bu orqali o‘z xulq-atvorini tahlil qilishni o‘rganadi. Ular o‘zlarini qahramonlarning o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali hayotiy tajribaga ega bo‘ladilar. Shuningdek, bolalar badiiy adabiyot orqali hissiy muvozanatni saqlashni va atrofdagilarga nisbatan xushmuomalalik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rganadilar. Badiiy adabiyotning yana bir muhim jihatı – bolalarda estetik didni shakllantirishdir. Chiroyli va mazmunli so‘zlar bilan ifodalangan asarlar bolalarda nafosat hissini uyg‘otadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga nafaqat adabiy asarlarni o‘qib berish, balki ularni teatr sahnalashtirishga ham jalb etish muhimdir. Teatr va badiiy o‘qish mashg‘ulotlari bolalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirish bilan birga, ularning ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Bolalarni barkamol tarbiyalashda ota-onalar va pedagoglarning o‘rni katta. Tarbiyachilar bolalarga badiiy adabiyot namunalari bilan muntazam tanishtirib borishlari, ularga asarlarni tushuntirib berishlari muhimdir. Ota-onalar esa uyda bolalar bilan birga kitob o‘qish, hikoya qilish va badiiy asarlar bo‘yicha suhbatlar uyushtirish orqali bolalarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishlari kerak. Bunday yondashuv bolalarda kitob mutolaasi odatini shakllantirish bilan birga, ularning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik metodlar badiiy adabiyot orqali o‘qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Shuningdek, bolalar orasida kitobxonlik tanlovlарини о‘tkazish, ijodiy yozuv mashg‘ulotlarini tashkil etish ham muhim pedagogik yondashuv hisobланади.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashning eng samarali vositalaridan biri hisobланади. U nafaqat bolalarning nutqini rivojlantiradi, balki ularning axloqiy tarbiyasiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida badiiy adabiyotdan keng foydalanish bolalarning ma’naviy olamini boyitadi, ularga yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqni anglashga yordam beradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Shu bois, bolalarga kitob mutolaasini singdirish, ularning badiiy adabiyotga bo‘lgan mehrini oshirish pedagoglar va ota-onalarning muhim vazifalaridan biri hisobланади.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Abdullayev A. "Bolalar adabiyoti va tarbiya." Toshkent, 2019.
2. Yo‘ldoshev I. "Badiiy adabiyot va bolalar nutqi." Samarqand, 2020.
3. Karimov A. "Pedagogik innovatsiyalar va badiiy adabiyot." Toshkent, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi materiallari.
5. Internet manbalari va pedagogik tajribalar.